



Sirdaryo viloyatida Demografik holat
2025- yilning yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025-yilning 1-oktabr holatiga Sirdaryo viloyatining doimiy aholisi soni 942,6 ming kishini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,7 foizga ko'paygan. 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida tug'ilganlar soni 15,9 ming nafarni, vafot etganlar 3,4 ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish 12,5 ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni 24 kishini va viloyatdan xorijga ko'chib ketganlar soni 77 kishini, qayd etilgan nikohlar 4,5 mingtani, nikohdan ajralishlar 1,1 mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	942,6	ming kishi
Tug'ilishlar soni	15,9	ming kishi
O'lganlar soni	3,4	ming kishi
Xorijdan ko'chib kelganlar	24	kishi
Xorijga ko'chib ketganlar	77	kishi
Nikohlar soni	4,5	ming birlik
Nikohdan ajralishlar soni	1,1	ming birlik



II. Doimiy aholi soni


Sirdaryo viloyatida doimiy aholi soni 2025-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra 942,6 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,9 ming kishiga, yani 1,7 foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda 405,5 ming kishi (jami aholi soniga nisbatan 43,0 %), qishloq joylarda esa 537,1 ming kishi (57,0 %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni 469,1 ming kishini (49,8 %), erkaklar esa 473,5 ming kishini (50,2 %) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni

(1-oktabr holatiga, ming kishi)

	2024-yil	2025-yil	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	926,7	942,6	101,7
Guliston sh.	101,5	104,2	102,7
Shirin sh.	19,4	19,4	100,0
Yangiyer sh.	48,8	49,9	102,2
<i>tumanlar</i>			
Oqoltin	56,4	57,2	101,4
Boyovut	140,8	143,4	101,8
Sayxunobod	83,6	85,0	101,7
Guliston	80,7	81,9	101,5
Sardoba	71,1	72,1	101,4
Mirzaobod	81,8	83,6	102,2
Sirdaryo	138,9	140,7	101,3
Xovos	103,7	105,2	101,4


Sirdaryo viloyatida 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrga o'rtacha 220,2 kishi to'g'ri kelgan. (2024-yil 1-oktabr holatiga 1 kv.km.ga 216,5 kishi).



III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Sirdaryo viloyatida 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni 15,9 ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 22,7 promilleni tashkil etdi. Tug'ilishlar soni 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,8 ming nafarga kamaygan.


Vafot etganlar soni 3,4 ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,9 promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni 2024-yilning mos davrida nisbatan 0,1 ming nafarga ko'paygan.



Sirdaryo viloyatida tirik tugʻilganlar soni 15,9 ming kishini, shundan oʻgʻil bolalar soni 8,2 ming kishini (jami tugʻilganlar soniga nisbatan 51,5 %), qiz bolalar soni 7,7 ming kishini (48,5 %) tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatida vafot etganlar soni 3,4 ming kishini, shundan erkaklar 1,9 ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan 55,3 %), ayollar 1,5 ming kishini (44,7 %) tashkil etdi.

Tugʻilganlar va vafot etganlarning jinslar boʻyicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Sirdaryo viloyatida 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni 4,5 ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti 6,5 promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga xam 4,6 ming birlikka toʻgʻri keldi.

Nikohdan ajralishlar soni 1,1 ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti 1,6 promilleni tashkil etdi.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Sirdaryo viloyatida nikoh tuzganlar soni 4,5 ming birlikni, shundan shahar joylarida 2,1 ming birlikni, qishloq joylarida 2,4 ming birlikni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatida nikohdan ajralishlar soni 1,1 ming birlikni, shundan shahar joylarida 0,6 ming birlikni, qishloq joylarida 0,5 ming birlikni tashkil etdi.

**Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning
shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik**



V. Aholi migratsiyasi


2025-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni 5 748 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar 5724 kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar 24 kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni 6 417 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar 6340 kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar 77 kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	<i>shundan:</i>		Jami	<i>shundan:</i>	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Sirdaryo viloyati	5748	5724	24	6417	6340	77
Guliston sh.	1595	1594	1	1032	1018	14
Shirin sh.	179	178	1	248	248	-
Yangiyer sh.	745	734	11	573	573	-
<i>tumanlar</i>						
Oqoltin	328	328	-	385	375	10
Boyovut	702	702	-	817	814	3
Sayxunobod	319	319	-	363	361	2
Guliston	276	276	-	584	583	1
Sardoba	282	282	-	491	489	2
Mirzaobod	676	665	11	581	577	4
Sirdaryo	213	213	-	597	559	38
Xovos	433	433	-	746	743	3

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



VII. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>